

GLOBALLASHUV DAVRIDA BOLALARNING KITOBXONLIK SALOHIYATINI  
TAKOMILLASHTIRISH

Termiz davlat pedagogika instituti  
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi  
**Sharopova Aziza Zokir qizi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi rivojlangan jamiyatda bolalar uchun kitoblarning o'rni va bolalarni kitoblarga jalb qilish uchun turli xil ko'rik tanlovlarning ahamiyati haqida hamda hozirgi bolalar uchun yaratilayotgan asarlarning ta'siri, shuningdek bolalar adabiyotining hozirgi yosh avlodga qay darajada manzurligi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** kitob, kitobxon, noshirlik, maktab yoshdagi kitobxonlik, bolalar adabiyoti.

Hozirgi rivojlanib kelayotgan jamiyatimizda yoshlarga bo'lgan ishonch, kelajakimiz poydevori sifatida e'tirof etilishi, xalqimizning yosh avlod uchun keng ko'lamdagi islohotlar yaratib, bu islohotlarning go'zal yakuni, yosh avlodni yanada odimlashi uchun yuksak harakatlardan biri sanaladi. Shular jumlasidan, yosh avlodni kitobga muhabbatini uyg'otish uchun turli xildagi kechalar tashkil etilishi quvonarli holatdir. Chunki, kitob bu ulkan ma'naviyat deganidir. Kitob yosh avlodga chinakam aqliy, axloqiy, estetik tarbiya berish vositasidir, kitob ularni erkin fikrlashga, dunyoqarashini o'stirishga, go'zal nutq sohibi bo'lishiga, qisqa qilib aytganda, jamiyatda o'z o'rnini egallashga, o'zligini anglashga yordam beradi. Kitob insonning eng yaqin do'stidir, siz kitob bilan do'st tutinar ekansiz, siz undan avvalo bugunni, u bilan sirdosh tutinsangiz esa o'tmish va kelajakni anglay boshlaysiz. U bilan qancha yaqinlashganingiz sari shuncha ilg'or pog'onaga ko'tarilasiz. U sizni shunday bir go'zal olamga yetaklaydiki, siz bilim shachmasidan bahramand bo'lasiz. Darhaqiqat, kitob barchamizni ezgulikka undaydigan, oldimizda turgan barcha muammolarni hal etishga yordam beradigan kuchdir.

Mamlakatimizda yoshlarni bepul ta'lim olish bilan bir qatorda, ular ilm olishlari va vaqtlarini bo'sh qoldirmasliklari uchun turli xildagi tanlovlar, shu bilan birgalikda iqtidorli yoshlarni aniqlash uchun turli festivallar ham mavjud. Yoshlarimiz orasidagi qobiliyatlar hech qachon e'tiborsiz qoldirilmagan. Ularni yuzaga chiqorish uchun davlatimiz turli iqtidorli bolalar uchun fondler mavjud. Misol tariqasida, yozuvchilar uyushmasi huzurida tashkil etilgan "Ijod" jamoat fondi tomonidan yozuvchi va shoirlarni, ayniqsa, yosh ijodkorlarning birinchi kitoblari ko'p nusxada nashr etish yo'lga quyilgan. Shu bilan birgalikda, ushbu muhim soha rivoji bilan bog'liq aholi, xususan, yoshlar o'rtasidagi kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishda bir qator muammolar mavjudligi ham aniqlandi.

Bolalar izlanishlari uchun davlatimiz ko'plab qulay sharoitlarga ega bo'lgan kutubxonalarimiz mavjud bo'lib, bunday kutubxonalar har bir shahar-u qishloqlarimizda o'z faoliyatini kursatadi. Rivojlanib ketayotgan ilm soha uchun har qanday o'zimiz uchun qulay shakldagi kutubxonalar mavjud. Biz o'zimiz uchun zarur bo'lgan kitoblarni elektron shaklda topish imkoniyatiga egamiz. Shuningdek, bolalarimiz uchun ham shunday sharoitlar mavjud. Qo'shimcha qilib aytganda, 14ta viloyat axborot-kutubxona markazi, tuman markazlari va shaharlardagi ta'lim muassasalarda 200 ga yaqin kutubxonalar mavjud. Shuningdek, "Kitob olami", "Sharq ziyokori", "O'z davkitob savdo ta'minoti" majmualarida kitob savdosi xizmati yo'lga quyish ko'rsatilgan.

Bolalarni kitobga qiziqtirish ona qornidan boshlanadi. Bolaning kitob sevishi oiladagi a'zolarining kitobga bo'lgan moyilligi bilan o'lchanadi.

Bolaga qancha ko'p kitob olib bersangiz va u kitob bo'yicha qiziqishini oshirsangiz, bola kitobni o'qishga oshiqadi. Yosh bolalarga rangli bo'yoqqa ega bo'lgan, rasmlari ko'p bo'lgan kitoblar diqqatini tortadi. Ammo kitob olib berguncha nafaqat ushbu tomonlari balkim, kitobdagi yo'l quyilgan xatolarni ham e'tiborga olishimiz kerak. Kitob tanlayotganimizda, kitob qanchalik bolaga tarbiyaviy, kreativ, aqliy va estetik zavq bera olishi bo'yicha to'xtalib o'tish kerak deb o'ylayman.

Bolalar adabiyotini yanada rivojlantirish uchun chet el bolalar adabiyot namunalarini ko'proq bolalar adabiyotiga singdira olish kerak. Chunki, har bir asar tag zamirida davlatning urf-odati, ularning tarixi yo bo'lmasa o'sha davlatdagi afsonaviy personajlari bolalar uchun til o'rganishga moyilligini oshiradi.

Bolalar adabiyotimizning zamonaviy vakillarining asarlariga unchalik ehtiyoj kam deb o'ylayman. Ularni yanada ommaga taqdim qilish uchun maxsus televediniya kanali yaratilib, yangi asar namoyishi taqdim etilsa, menimcha asarlarga bo'lgan qiziqishlarni yanada oshirishga zamin yarata oladi.

Bolalarga kitobga qiziqishini oshirish nafaqat oilaga balkim, maktabgacha ta'lim muassasini hamda maktabni, boshqacha qilib aytganda ota-onalar, tarbiyachilar va murabbiylar hamda kutubxona hodimlarining ahamiyati kattadir.

Maktabgacha ta'lim yoshdagi kitobxonlarga asosan ota-onalar, buvi-bobolar, bolaning kitobxonlik madaniyati do'stlik, halollik, botirlik, mehnatsevarlik, shakllanadi. Ertaklar xalq og'zaki poetik ijodidagi eng boy va rang-barang janrlardan rostgo'ylik, mehr-muhabbat g'oyalari asoslangan ertaklar tinglash orqali biri. Bundan tashqari topishmoq orqali bolaning tafakkuri rivojlanadi, topishmoqlar xalqning hayoti, urf-odati, o'ziga xos rasm-rusumlari o'rgatadi hamda bolalarni o'ylashga, topqirlikka o'rgatadi. Bundan tashqari bolalar «Kim?». «Nima?» so'roqlariga javob topishga o'rganadilar.

Maktab yoshidagi kichik kitobxon bolalarga tabiat, vatan, vatanparvarlik, botirlik, mehnatsevarlik, odob-axloq, ota-onaga, ustozlarga, o'qishga mehr-muhabbat g'oyalari singdirilgan kitoblarni o'qish tavsiya etiladi. Ular ko'proq sehrli-fantastik ertaklar, sarguzasht hikoya va qissalar, dostonlarni sevib o'qiydilar. Bunday yoshdagi bolalarga juda katta hajmdagi asarlardan ko'ra, ko'proq qisqaroq hikoya va qissalarni tavsiya etish muhimdir, chunki ba'zi bolalar katta hajmdagi asarlarni o'qishdan zerikib qolishi mumkin.

**"Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatta bo'ladi."** - deydi yurtboshimiz. Darhaqiqat, go'zal poydevorimiz, go'zal kelajak yarata oladi. Yoshlarimiz bilim olishda va izlanishda davom etar ekan, albatta, buyuk kelajagimiz va biz maqsad qilgan hamma orzularimiz ushaladi, Kelajagimiz yoshlarimiz qo'lidadir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Muminova, U. Important problems of uzbek anonymity in the works of Kasghari. WEB OF SCIENTIST: INTERNATIONAL SCIENTIST RESEARCH JOURNAL ISSN, 2776-0979.

2. Qarshiyevna U. M. Linguistic Views Of Mahmud Kashgari //Central asian journal of social sciences and history. – 2022. – T. 3. – №. 12. – C. 336-340.

3. Ra'no C., Karshiyevna M. U. Innovative Approach as a Condition for Improving the Educational Process in a Modern School //Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 117-120.

4. Muminova U. K. PHYTONYMS IN THE WORK" MAHBUB UL-QULUB" //“TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE”. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 46-50.

5. Qarshiyevna M. U. Lexical-Grammatical Characteristics of the Noun in Ancient Turkish Language International Interdisciplinary Research Journal Volume 2 Issue 1, Year 2023 ISSN: 2835-3013.

6. Qarshiyevna, Umida Muminova. "Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarining pedagogika tarixid

